

O`QUVCHILARNI SAN`ATNING TURLI OQIM VA YO`NALISHLARI BILAN TANISHTIRISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10450916>

Karimov Xamidbek Otaxanovich

UrDU, "Tasviriy san`at va muhandislik
grafikasi" kafedrasi katta o`qituvchisi

Raximov Hamro Amanbayevich

UrDU, "San`at" kafedrasi o`qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada yoshlarga ta`lim-tarbiya berishda madaniyatimiz, qadriyatlarimiz, milliy san`atimiz namunalaridan, ota-bobolarimiz tomonidan yaratilgan va butun jahonga mashhur bo`lgan ajoyib san`at namunalaridan keng foydalanish bilan birgalikda, tasviriy san`atdagi yangi oqim va yo`nalishlarni o`rgatish, zamon bilan hamnafas tarbiyalash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan ekanligi yoritib berilgan.

Kalit so`zlar

Rafael Santi, Titsian, Pablo Pikasso, O.Renuar, Onore Dome, Gustavo Kurbe, Pol Gogen, Repin, Ayoazovskiy, realizm, formalizm, kubizm, imperessionizm, puantilizm, postimpressionizm, suyurrealizm, abstraktsionizm, avangardizm.

San`atdagi oqim va yo`nalishlar xususida juda ko`plab suratlar, ma`lumotlar bor. Tasviriy san`at ta`limi mazmunini takomillashtirish, uning sifat va samaradorligini oshirish mehnat faoliyatimizning asosiy yo`nalishlar. Endi ta`limga yangicha uslub va mazmun, shakl va vositalardan foydalanishni davr talab etmoqda.

Ayniqsa, bu masalalar butun axborotlar jarayoni va taraqqiyotining texnikaviy oshishi bilan yanada dolzarblashdi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi jamiyat, davlat va ilm ahllari oldiga, o`z javobgarligini his etadigan har tomonlama komil insonni tarbiyalashni asosiy maqsad qilib qo`ygan. Jumladan, yoshlarga ta`lim-tarbiya berishda madaniyatimiz, qadriyatlarimiz, milliy san`atimiz namunalaridan, ota-bobolarimiz tomonidan yaratilgan va butun jahonga mashhur bo`lgan ajoyib san`at namunalaridan keng foydalanish bilan birgalikda, tasviriy san`atdagi yangi oqim va yo`nalishlarni o`rgatish, zamon bilan hamnafas tarbiyalash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Tasviriy san`at ta`limining mazmuni o`quvchilarning

ham nazariy bilimlarini kengaytirish, ham amaliy-tasviriy malakalarini rivojlantirishdan iborat.

Umumta'lim maktablarining tasviriy san'at fanida (*«Tasviriy san'atda oqim va yo'nalishlar»7-sinf 1-soatlik suhbat mavzusi*) jahon san'atida o'zining muhim o'rni bilan alohida ahamiyat kasb etgan imperissionizm, postimperissionizm, kubizm, puantilizm, fovizm kabi yirik oqim va yo'nalishlar mavzusi kiritilgan.

Uyg'onish davri san'atining jahon madaniyati tarixida ulug' olim, buyuk rassom, beqiyos konstruktor, mutafakkir Leonardo da Vinchi, Mekelanjelo, Rafael Santi, Titsian, Rembrandt, A.Dyurer, Klod Mone, Pablo Pikasso, Rokuel Kent, O.Renuar, Onore Dome, Gustov Kurbe, Pol Gogen va boshqa rassomlar chet el tasviriy san'atining turli oqim vakillaridir. Barbizon maktabi rassomlari, realistik san'at namoyondalari Repin, Kramskoy, Ayvazovskiy, Konelovskiy, Shubin kabi rus sayyor rassomlari ham ko'plab ijod qildilar.

Bugungi kunda tasviriy san'atning turli yo'nalishlarida realizm, formalizm, kubizm, imperessionizm, puantilizm, postimpressionizm, suyurrealizm, abstraksionizm, avangardizm va boshqa oqim vakillari ijod qilib kelmoqdalar. Ammo bular haqida to'liq ma'lumotlar hozirgacha ham yo'q. Impressionizm iborasining tasviriy san'atga kirib kelishi frantsuz rassomi Klod Mone nomi bilan bog'liq.

Uning 1884 yil Parijda namoyish etilgan «Quyosh chiqishi oldidagi taassurot» nomli asariga sharh yozgan jurnalist Matiss bilan birga ko'rgazmada qatnashgan rassomlarni «Taassurotchilar» deb atagan (frantsuzcha impressionnesme»-taassurot demakdir). Shu tariqa tasviriy san'atda impressionistlar va impressionizm oqimi yuzaga keldi

Impressionizm vakillari buyumlardagi tashqi chiziqlar, uning aniq shaklini ifoda etishdan ko'ra ranglar jilosiga, yorug'-soyalar o'yiniga katta e'tibor berdilar. Spektr ranglariga yaqin «toza» ranglardan, ranglarni optik aralashuvidan foydalanib asarlar yaratishdi.

Postimpressionizm (lotincha «post»-keyin ma'nosini anglatadi)-impressionizm ta'sirida yuzaga kelgan oqim bo'lib, bu oqim vakillari impressionistlar kabi toza ranglarda ishlasalarda, ulardan farqli o'laroq shartlilik orqali umumlashgan obrazlar yaratishga intilganlar. Bu termin shartli bo'lib, odatda, impressionizmdan keyin yuzaga kelgan va uning yutuqlarini o'zlashtirgan holda san'at tarixida o'z yo'llarini belgilab olgan rassomlar ijodini ta'riflash uchun qo'llaniladi.

Bu yo'nalish vakillari impressionistlarning yutuqlarini e'tirof etganlari holda voqealikni etudnamo ishlashga, tasviriy san'atning asosi bo'lgan qalam suratga

e'tibor bermaslikka, ijtimoiy mavzulardan qochishga qarshi chiqqan. Vinsent Van Gog, Pol Sezann, Pol Gogen kabi buyuk rassomlar postimpressionizmning yirik vakillari hisoblanadilar.

Neoimpressionizm (frantsuzcha «neoimpressionnisme»)- XIX asr oxirlaridagi frantsuz rangtasvir san'atidagi oqimlardan biri. Uning yirik vakillari J.Syora va P.Sinyak hisoblanadi. Neoimpressionizm Belg'iyada (T. Van Reyselberg), Italiyada (J.Segantini) ham yoyilgan. Uning vakillari mavzuli kompozitsiyalarini, portretlarini hajmli-fazoviy holatda ishlaganlar.

Neoimpressionizm vakillari so'nggi impressionizmning an'alarini, jumladan optik xususiyatini rivojlantirganlari holda ranglarning murakkab tuslarini qo'llash metodikasini ishlab chiqdilar. Bu tomondan ular puantilizmga asos soldilar.

Puantilizm (frantsuzcha «pointillisme», «point» «nuqta» ma'nosini bildiradi) – «pointiller» – nuqtalar bilan yozish, chizish degani bo'lib, rangtasvirdagi yirik yo'nalishlardan biri. Bu uslubda rang surtmalari mayda dumaloq nuqtalar shaklida neoimpressionizmga xos xarakterga ega holda qo'llaniladi. 1880-90 yillarda frantsuz san'atida qator yo'nalish va oqimlar paydo bo'ldi. Jumladan, Pol Sinyak (1863 – 1935), Jorj Syora (1859-1891), Anri Edmon Kross kabi rassomlar ranglarning optik qo'shilishi xususiyatini ilmiy asoslashga intildilar.

Ular asarlarini kichik kubsimon yoki dumaloq nuqta shaklidagi spektr rang surtmalarini bir-biriga tekkizmasdan ishlashga harakat qilganlar. Bu rang surtmalari alohida-alohida bo'lib, optik qo'shilish hisobiga yangicha, yaxlit rang tizimini hosil qiladi. Bu uslubni puant, ya'ni nuqta, nuqtalash uslubi deb yuritganlar. San'at tarixiga bu uslub «puantilizm» deb, uning vakillarini esa «puantilistlar» deb kiritilgan.

Abstraksionizm XX asrda paydo bo'lib, uning vakillari dastgohli rangtasvir, haykal taroshlik va grafikada narsa va hodisalarni real tasvirlashdan voz kehdilar. Abstraksionizm – lotincha mavhum degan ma'noni anglatadi Bundan rassomlar san'atining hayotni bilishdagi ahamiyatini inkor etadilar. U 1910 yilda paydo bo'lib, jamoatchilik didlariga karshi aloxida shaxslarning san'atiga munosabatlarni bildirdi.

Bu tartibsiz harakati tasvirlanadi. Abstraksionistlarning dastlabki vakillari V.Kandinskiy (rus) Seymur Likton, Karela Appela (golland) edilar. Bu oqimlagi asarlardan yana biri 1988 yilda yaratilgan.

A.Raytburdning «Avliyo» Anatoliy «vasvasi» deb nomlanadi bolalar bu suratga qarab bunda avliyo va uning atrofidagi tasvirlarni aniqlaydi.

Surrealism (frantsuzcha «surrealisme», tom ma'noda – realizmdan yuqori) – XX asr san'atidagi avangard yo'nalishlardan biri. Surrealizmni tashkil topishi XX asrning 20 yillariga to'g'ri keladi. 1924–1925 yillar mobaynida «Surrealistik qo'zg'alon» bo'lib o'tdi. 1925 yili Parijda surrealistlarning 1-ko'rgazmasi ochildi. Unda M.Ernst, Men Rey, X.Arp, P.Rua, A.Masson, J.Miro, I.Dyushan, F.Pikabiya, M.Tangi, S.Dali, R.Magrit kabi rassomlar ishtirok etdilar.

Surrealistlarning uslublaridan asosiysi ibtidoiy jamoa san'atiga, bolalar ijodiga taqlid sanalgan. Shu bilan birga surrealistlar o'z asarlarini yaratishda kollajdan, fotomontajdan, kundalik buyumlardan, mexanizm qismlaridan ham foydalanganlar.

Kubizm (frantsuzcha «kubizme»), Bu oqimning vatani ham Frantsiya bo'lib, u XX asrning boshlarida yuzaga keldi va uning P.Pikasso, J.Brok, F.Lete, R.Beloni kabi yirik vakillari tasvirlanayotgan buyumlarning informatsion imkoniyatlarini bo'rtgirib ko'rsatishga, ularni oddiy geometrik shakllarga ajratishga intilganlar.

Misol tariqasida buyuk ispan kubist-rassomi Pablo Pikassoning ijodiga qisqacha to'xtalsak, uning to'liq ismi-Pablo Diego Xose Fransisko de Paula Xuan Nepomuseno de los Remedios Krispin Kipriano de la Santisima Trinidad Ruisi Pikasso.U asosan Frantsiyada ijod qilgan. Rassom o'z ijodini ko'proq oddiy xalq hayoti bilan bog'ladi. Uning asarlarida ko'chmanchi sirk aktyorlari, tilamchilar, o'z ifodasini topdi. "Qari tilamchi o'g'il bola bilan", "Absentni yaxshi ko'radigan ayol", "Ko'chmanchi gimnastlar", "Shar ustidagi qizcha", "Uyqu" kabilar ana shunday asarlar qatoriga kiradi.

U o'z ijodi davomida tasviriy san'atda yangi material va texnikani qo'llash, yangi shakl va uslublardan foydalanish, turli yo'nalish va oqimlarda asarlar yaratishga harakat qildi. Uni bu izlanishlari natijasida Frantsiya tasviriy san'atida kubizm oqimi paydo bo'ldi.Uning etakchisi va asoschisi Pikassoning o'zi edi. Kubizm namoyondalarining fikrlariga ko'ra har qanday narsalar shakli asosida handasiy shakllar-kub, konus, piramida, prizma, tsilindr, shar va boshqalar shakli etadiki, rasm ishlashda ulardan foydalanish lozim.

Pikassoning ijodiga surrealizmni ta'siri kuchli bo'lsada, u borliq go'zalliklarini ulardagi garmoniyani aks ettiruvchi realizm oqimida portretlar va kompozitsiyalar ham yaratdi. Pikassoning "Analitik", "Sintetik", "Dekorativ" deb nomlangan kubizm oqimidan asarlarida ularga aloqasi bo'lmagan materiallarni (*qog'oz, qum, yog'och v.b.*) qo'llana boshladi. Natijada uning bu harakatlari yangi izlanishlarga olib keldi.

Uning san'atida murakkab, ayrim hollarda nihoyatda qarama-qarshi g'oyalar aks etdi.Ijodkor ijodida uning eng mashhur asarlaridan biri 1937 yilda



Pablo Picasso. Gernika. 1937.

yaratilgan “Gernika” asari bo`lib, unda rassom murakkab metoforik shaklida nemis-fashist aviatsiyasi tomonidan kichik bir shaharchani vaxshiy-larcha bombardimon qilinishi tasvirlangan. Bu asari bilan rassom fashizmga nisbatan o`zining keskin munosabatini bildiradi uni xarakterlarini keskin qoralaydi.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda rassomning izlanuvchanlik faoliyati yanada o`tdi. Endi u rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik bilan bir qatorda kulolchilik bilan ham shug`ullana boshlaydi. Uning tinchlik va demokratiya borasidagi qarashlari kuchayib bu borada tinchlik qushi-kabutarlar tasvirlangan plakatlar va rasmlar yaratadi.

Uning bu harakatlari 1950 yilda xalqaro, tinchlik mukofoti laureati bilan taqdirlanishiga olib keldi. 1962 yilda esa “Xalqlar o`rtasida tinchlikni mustahkamlash” nomli halqaro mukofotga sazovor bo`ldi.

U professional rassomlar orasida eng sermahsul ijodkor hisoblanadi. Bu musavvir 75 yillik ijodi faoliyati davomida 13.500 ta suvrat 100.000 ta gravyura va litografiya, turli kitoblar uchun 34.000 ta bezakli rasm hamda 300 ta haykal va keramik asarlar yaratgan.

Pikasso qalamiga oid barcha asarlarining umumiy qiymati 788 mln. AQSH dollariga teng deb baholangan. 1997 yilga kelib Pikassoning ijod mahsullari 3579 marotaba kimoshdi savdolariga qo`yilgan edi. Pablo Pikasso ajoyib rassom bo`lishi bilan birgalikda o`z davrida o`zining teran mazmunli falsafiy fikrlari bilan ko`pchilikning e`tirofiga sazovor bo`lgan. Uning hayot musavviri bo`lishiga oid hikmatli iboralari juda ko`p.

• *Har bir bolakay - rassom. Bolalik davridan keyin rassomlikni saqlab qolish murakkabdir.*

- *Rasm chizish uchun, ko`zlarini yumishing va kuylashing lozim.*
- *Barcha rassom asarini tushunishga harakat qiladi, nega ular qushlarning sayrashini tushunishni istashmaydi.*
- *San'atshunoslar bir yerda jam bo`lsa tuzilish, mazmun, mohiyat to`g`risida so`zlashadilar. Rassomlar to`plansa, qaerda arzon aralashtiruvchi borligi to`g`risida so`rashadi.*

Pablo Pikasso ijodini o`quvchilarga o`rgatish, ularni tasviriy san`atning oqim va yo`nalishlari bilan tanishtirish, o`zining intellektual salohiyat xarakteri bo`yicha talabalardan mustaqil falsafiy fikrlab yangi ijodiy kompozitsiyalarni yaratishga undaydi.

O`zbekiston tasviriy san`atida J.Umarbekov, B.Jalolov, O.Qozoqov, Akmal Nur kabi ko`plab rassomlar san`atning turli oqimlarida ijod qilishmoqda. huni ta`kidlash joizki, tasviriy san`at mashg`ulotlarida o`quvchilarga nafaqat yangi oqim va yo`nalishlarni o`rgatish, ularni badiiy madaniyatni shakllantirish, mashhur rassomlar hayoti va ijodini o`rganishni o`z ichiga oladi, shuningdek, ijodkorlikni, tafakkurni, badiiy-estetik didni o`stirish, kuzatuvchanlik va hayotni bilishga, ezgulikni yovuzlikdan farqlashga, badiiy ehtiyojlarini qondirish kabi imkonni beradi.

ADABIYOTLAR:

1. Ш.М.Мирзиёев Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз-Т.: Ўзбекистон, 2016.
2. Abdullaev N.O'. «San`at tarixi». 2/1. Т.: San`at, 2001.
3. Abdullayev. O`zbekiston san`ati tarixi. Toshkent: Fan. 2007
4. Университетская библиотека online.- Режим доступа: <http://www.biblioclub.ru/>
5. Алтайская краевая универсальная научная библиотека им. В.Я.
6. Шишкова.- Режим доступа: <http://www.akunb.altlib.ru/elektronnaya-biblioteka.html>